ISSN: 2181-9416
5-SON, 2026

# YURIST AXBOROTNOMASI

## ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIY, ILMIY-AMALIY JURNAL

Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald



iD g doi crossref CYBERLENINKA НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/5

# YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON

# ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5

# LAWYER HERALD

ISSUE 5

Toshkent — 2026

**NOSIROV Amirxon Bahodir o‘g‘li**
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: a.nosirov.1111tsul@gmail.com

# JINOYAT PROTSESSIDA RAQAMLI DALILLARNI TO‘PLASH VA BAHOLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

**Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): NOSIROV A.B.** Jinoyat protsessida raqamli dalillarni to‘plash va baholashning dolzarb muammolari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald № 5 (2026) B. 131-138.

5 (2026) DOI https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/5-014

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada jinoyat protsessida raqamli dalillarni to‘plash va baholash bilan bog‘liq nazariy va amaliy muammolar tahlil qilingan. Maqolada raqamli dalil tushunchasining huquqiy tabiati, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 2024-yilda kiritilgan yangi normalari asosida ko‘rib chiqilgan. Ma’lumki, JPKning $95^1$-moddasiga ko‘ra, olib qo‘yish yoki ko‘zdan kechirish bo‘yicha tergov harakatlari jarayonida elektron ma’lumotlarni olishda mutaxassis ishtiroki majburiy shart sifatida belgilangan, biroq uning malaka mezonlari va ko‘chirma nusxani asl nusxaga aynan bir xilligini tasdiqlovchi texnik mexanizm qonun darajasida yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bugungi kunda “saqlash zanjiri” (chain of custody) elementlari JPKning 208-moddasida qisman mustahkamlangan bo‘lsa-da, raqamli dalillarni olishdan boshlab sudga taqdim etishgacha bo‘lgan har bir operatsiyani maxsus protsessual tartibda hujjatlashtirish mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Maqolada xalqaro tajriba Yevropa Kengashining Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi Konvensiyasiga, Yevropa Ittifoqining 2023/1543-son Reglamenti va ISO/IEC 27037:2012 standarti qiyosiy tahlil qilingan.Transchegaraviy joylashgan elektron ma’lumotlarga kirish muammolari ko‘rib chiqilgan. Maqolada qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan. Tahlil natijasida raqamli dalilning yaxlitligini kriptografik xesh-summa hamda autentifikatsiya, metama’lumotlar, protsessual bayonnoma va saqlash zanjiri bilan kompleks tarzda tasdiqlash, raqamli dalillar bilan bog‘liq har bir operatsiyani maxsus protsessual tartibda hujjatlashtirish mexanizmini ishlab chiqish va transchegaraviy hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha aniq takliflar ilgari surilgan. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda raqamli dalillarning yaxlitligini tasdiqlash va saqlash zanjirini yuritish bo‘yicha huquqiy mezonlar taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli dalil, jinoyat protsessi, dalillarni to‘plash, dalillarni baholash, saqlash zanjiri, mutaxassis ishtiroki, dalilning maqbulligi, xalqaro hamkorlik, kriminalistika.

**НОСИРОВ Амирхон**
Независимый соискатель Ташкентского государственного юридического университета
E-mail: a.nosirov.1111tsul@gmail.com

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СБОРА И ОЦЕНКИ ЦИФРОВЫХ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье проанализированы теоретические и практические проблемы, связанные со сбором и оценкой цифровых доказательств в уголовном процессе. Правовая природа понятия

«цифровое доказательство» рассмотрена на основе новых норм Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, введенных в 2024 году. Известно, что согласно статье 95[1] УПК участие специалиста при получении электронных данных в ходе следственных действий по изъятию или осмотру установлено в качестве обязательного условия, однако его квалификационные критерии и технический механизм, подтверждающий точное соответствие копии оригиналу, недостаточно разработаны на законодательном уровне. На сегодняшний день элементы «цепи сохранения доказательств» (chain of custody) частично закреплены в статье 208 УПК, однако механизм документирования каждой операции с цифровыми доказательствами от их получения до представления в суд в специальном процессуальном порядке разработан недостаточно. В статье проведен сравнительный анализ международного опыта, в частности Конвенции Совета Европы о киберпреступности, Регламента Европейского Союза № 2023/1543 и стандарта ISO/IEC 27037:2012. Рассмотрены проблемы доступа к электронным данным, находящимся под трансграничной юрисдикцией. В статье использованы сравнительно-правовой, формально-юридический и системный методы анализа. В результате анализа выдвинуты конкретные предложения по подтверждению целостности цифровых доказательств с помощью криптографической хэш-суммы в комплексе с аутентификацией, метаданными, процессуальным протоколом и цепью хранения, разработке специального процессуального порядка документирования каждой операции с цифровыми доказательствами и расширению трансграничного сотрудничества. В статье приведены правовые критерии подтверждения целостности цифровых доказательств и ведения цепи сохранения доказательств.

**Ключевые слова:** цифровое доказательство, уголовный процесс, сбор доказательств, оценка доказательств, цепь хранения, участие специалиста, допустимость доказательств, международное сотрудничество, криминалистика.

**AMIRKHON Nosirov**
Independent Researcher at Tashkent State University of Law
E-mail: a.nosirov.1111tsul@gmail.com

# CURRENT ISSUES OF DIGITAL EVIDENCE COLLECTION AND EVALUATION IN CRIMINAL PROCEEDINGS

**ANNOTATION**

This article analyzes theoretical and practical issues related to the collection and evaluation of digital evidence in criminal proceedings. The legal nature of the concept of digital evidence is examined based on the new provisions introduced into the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan in 2024. Although under Article 95[1] of the Criminal Procedure Code the participation of a specialist is designated as a mandatory condition when electronic data are obtained through the investigative actions of seizure or inspection, their qualification criteria and the technical mechanism verifying the exact identity of a duplicate copy to the original are insufficiently developed at the legislative level. Today, the elements of the “chain of custody” are only partially enshrined in Article 208 of the Criminal Procedure Code, while a special procedural mechanism for documenting every operation with digital evidence, from its collection to its presentation in court, remains insufficiently developed. The article presents a comparative analysis of international practice, specifically referencing the Council of Europe’s Convention on Cybercrime, EU Regulation No. 2023/1543, and the ISO/IEC 27037:2012 standard. Challenges regarding access to cross-border electronic data are also addressed. The article employs comparative-legal, formal-legal, and systematic analysis methods. As a result of the analysis, specific proposals are put forward regarding the verification of digital evidence integrity via cryptographic hash values in combination with authentication, metadata, procedural records and the chain of custody, the development of a special procedural regime

for documenting every operation with digital evidence, and the expansion of cross-border cooperation. The scientific novelty of the article lies in proposing legal criteria for verifying the integrity of digital evidence and maintaining the chain of custody.

**Key words:** digital evidence, criminal procedure, evidence collection, evidence evaluation, chain of custody, specialist participation, admissibility of evidence, international cooperation, criminal forensics.

Zamonaviy jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan raqamlashtirish jarayoni jinoyatchilikning ham shaklini tubdan o‘zgartirdi. Kompyuter texnologiyalari, mobil aloqa vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va bulutli xizmatlardan foydalanish doirasining kengayishi natijasida jinoyat sodir etilishi bilan bog‘liq axborotning asosiy qismi endi moddiy shaklda emas, balki raqamli ko‘rinishda mavjud bo‘lmoqda. Ushbu holat jinoyat protsessida dalillar nazariyasi va amaliyoti oldida ilgari mavjud bo‘lmagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa raqamli ma’lumotlarning nomoddiyligi, ularni oson o‘zgartirish yoki yo‘q qilish imkoniyati, transchegaraviy joylashuvi va tez eskirishi kabi xususiyatlari an’anaviy dalillar institutlarining ularga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishini qiyinlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ushbu sohada tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2024-yil 21-noyabrdagi 1003-sonli qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga “elektron ma’lumotlar” va “raqamli dalillar” tushunchalari, ularni to‘plash, taqdim etish, saqlash va tekshirish tartibini belgilovchi bir qator moddalar kiritildi [1]. Biroq qonunchilikdagi ushbu yangiliklar amaliyotda bir qator tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, raqamli dalilning yaxlitligini (integrity) qanday tasdiqlash, olib qo‘yish yoki ko‘zdan kechirish jarayonida mutaxassis ishtirokining majburiyligi qay darajada ta’minlanishi, xorijda joylashgan serverlardagi ma’lumotlarga qanday tartibda kirish mumkinligi kabi savollar hali ham to‘liq yechim topmagan.

Mavzuning dolzarbligi shu bilan ham izohlanadiki, xalqaro miqyosda raqamli dalillarga oid huquqiy asoslar faol rivojlanmoqda Yevropa Kengashining Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi Konvensiyasiga (2021) va Yevropa Ittifoqining 2023/1543-son Reglamenti bunga yorqin misoldir [2, 3]. Ushbu xalqaro tajribani o‘rganish va milliy qonunchilikka moslashtirish O‘zbekiston uchun ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida kiberjinoyat va axborot texnologiyalari vositasida sodir etilgan firibgarliklar ulushi keskin ortib bormoqda. IIV va Bosh prokuratura ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil va 2024-yilning birinchi yarmida qayd etilgan firibgarlik va o‘g‘rilik jinoyatlarining 43 foizdan ortig‘i ayrim turdagi axborot texnologiyalari, axborot tizimlari va bank plastik kartalari vositasida sodir etilgan. So‘nggi besh yilda mamlakatda kiberjinoyatlar soni 11 barobarga oshib, 4 865 tadan 62 440 taga yetdi. Ushbu jinoyatlar oqibatida fuqarolarga jami 3,73 trln so‘m miqdorida moddiy zarar yetkazilgan. Shundan yarmi 1,89 trln so‘mi joriy yilning 11 oyiga to‘g‘ri keladi. [4, 5].

X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi tomonidan o‘tkazilgan sud-kompyuter texnikaviy va sud-kriminalistik ekspertizalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tergov organlari tomonidan taqdim etiladigan raqamli obyektlarning (flesh-kartalar, mobil telefonlar, server ma’lumotlari) 28-30 foizida dastlabki ko‘zdan kechirish va olib qo‘yish jarayonida mutaxassis ishtirok etmagani sababli obyekt xotirasidagi metama’lumotlar (timestamps, file integrity) o‘chirib yuborilgan va bu ekspertiza xulosalarida aks etgan [6].

“Elektron ma’lumotlar” va “raqamli dalil” tushunchalari ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llanilsa-da, ularning huquqiy mazmuni bir xil emas. Jinoyat-protsessual kodeksining yangi tahriridagi $204^1$-moddasiga ko‘ra, elektron ma’lumotlar – bu elektron qurilmalar, axborot tizimlari va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yaratiladigan, ishlov beriladigan hamda saqlanadigan ma’lumotlardir. O‘z navbatida, $204^2$-modda raqamli dalilni ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lgan elektron ma’lumotlar (fayllar, audio- videoyozuvlar, internet tarmog‘ida saqlanayotgan ma’lumotlar va boshqalar) sifatida belgilaydi. Demak, “elektron ma’lumot” kengroq tushuncha bo‘lib, u faqat protsessual ahamiyat kasb etganda “raqamli dalil” maqomiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida ISO/IEC 27037:2012 xalqaro standartida qo‘llaniladigan “potensial raqamli dalil” tushunchasi va uning metodologik asoslari bilan uzviy bog‘liqdir [7].

Xorijiy huquqiy tadqiqotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, raqamli dalillar instituti uchta tayanch spetsifik belgisi bilan an'anaviy ashyoviy dalillardan farqlanadi: birinchidan, nomoddiylik boʻlib, u axborotning texnik apparatlar vositasidagina vizual va semantik idrok etilishini anglatadi; ikkinchidan, oʻzgaruvchanlik, ya'ni fizik tashuvchiga shikast yetkazilmagan taqdirda ham kontentning osongina modifikatsiya qilinishi yoki yoʻqotilishi; uchinchidan, koʻchirib olinuvchanlik boʻlib, u asl manbaning sifat va strukturaviy xususiyatlariga ta'sir etmay, uning mukammal va aynan bir xil nusxalarini shakllantirish imkonini beradi [8].

Milliy adabiyotlarda ham raqamli dalillarning protsessual mustaqil dalil turi sifatidagi maqomi boʻyicha qarashlar rivojlanmoqda. Xususan, tadqiqotchilar raqamli dalillarning ashyoviy dalillardan farqli oʻlaroq moddiy qiymatga ega emasligini va ularni faqat koʻz bilan emas, balki texnik vosita orqaligina idrok etish mumkinligini ta'kidlaydilar [9]. Shu bilan birga, raqamli dalilning qogʻozga chop etilgan nusxasi, notarial tasdiqlangan holatlardan tashqari, yozma dalil sifatida baholanmasligi lozimligi Fuqarolik protsessual kodeksining $89^2$-moddasida ham mustahkamlangan.

Shunday qilib, raqamli dalilning huquqiy tabiati ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, u mustaqil dalil turi sifatida alohida protsessual tartibga ega boʻlishi lozim; ikkinchi tomondan, uning mazmuni masalan, hujjat matni, video tasvir, an'anaviy yozma yoki ogʻzaki dalillarga xos xususiyatlarni ham saqlab qolishi mumkin [10].

Raqamli dalillarni toʻplash jarayoni ketma-ket bosqichlardan tashkil topgan murakkab tizim boʻlib, u oʻz ichiga dalillarni aniqlash, qayd etish, olib qoʻyish yoki nusxalash hamda ishonchli saqlash kabi jarayonlarni qamrab oladi. ISO/IEC 27037:2012 xalqaro standarti ushbu bosqichlarni tartibga solish bilan birga, subyektlar tarkibini ham aniqlashtiradi. Xususan, ushbu standart vakolatli shaxslarni ikki asosiy toifaga "raqamli dalil boʻyicha birinchi murojaat qiluvchi" hamda "raqamli dalil boʻyicha mutaxassis"ga ajratadi.

Oʻzbekiston qonunchiligida ham ushbu yondashuvga mos keluvchi norma mavjud boʻlib, JPKning $95^1$-moddasiga kiritilgan toʻrtinchi qismga koʻra, olib qoʻyish yoki koʻzdan kechirish boʻyicha tergov harakatlari mutaxassis ishtirokisiz oʻtkazilgan taqdirda olingan elektron ma'lumotlar nomaqbul dalil deb topiladi. Bu norma amaliyot uchun katta ahamiyatga ega, chunki u mutaxassis ishtirokini bu turdagi tergov harakatlari doirasida shunchaki tavsiya emas, balki dalilning maqbulligi uchun majburiy shart darajasiga koʻtaradi. Shu bilan birga, mazkur qoida mutaxassis ishtirokisiz olingan barcha raqamli dalillarga emas, aynan olib qoʻyish yoki koʻzdan kechirish boʻyicha tergov harakatlari jarayonida olingan elektron ma'lumotlarga nisbatan tatbiq etiladi; boshqa tartibda olingan elektron ma'lumotlarning maqbulligi esa ushbu qoida bilan emas, dalillarga qoʻyiladigan umumiy talablar asosida baholanadi.

E'tibor berish lozimki, amaldagi qonunchilikni qoʻllash va tashkiliy amaliyot bilan bogʻliq bir qator hal etilmagan masalalar mavjud.

Birinchidan, "mutaxassis" tushunchasining texnik saviyasi va malaka talablari qonunchilikda aniq belgilanmagan, bu holat turli sud-tergov organlarida bir xil vaziyatlarga turlicha yondashuvlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ikkinchidan, JPKning $204^1$-moddasiga koʻra, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi va boshqa shaxslar elektron ma'lumotlarni koʻchirma nusxa olish yoʻli bilan taqdim etishga haqli, biroq bunday koʻchirmaning asl nusxaga toʻliq mos kelishini tasdiqlovchi texnik mexanizm qonun matnida toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatilmagan. Xalqaro amaliyotda raqamli obyektlarning asl nusxasi hamda uning koʻchirmasi oʻrtasidagi strukturaviy moslikni (verifikatsiyani) huquqiy va texnik jihatdan mustahkamlashda kriptografik xesh-funksiyalarni qoʻllash asosiy texnik vosita sifatida keng e'tirof etilgan [11]. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, xesh-qiymatlarning mos kelishi ma'lumotning qat'iy ravishda bit darajasida modifikatsiyalanmaganligini kafolatlaydi, biroq u axborotning manbasi, muallifi, huquqiy jihatdan maqbulligi yoki mazmunan ishonchliligini oʻz-oʻzidan yetarli darajada isbotlay olmaydi. Shu sababli, xesh-summa parametri autentifikatsiya mexanizmlari, metama'lumotlar tahlili, protsessual rasmiylashtirish va saqlash zanjiri kabi kompleks instrumentlar doirasida baholanishi zarur.

Uchinchidan, telekommunikatsiya tarmoqlarida va Internet jahon axborot tarmogʻida koʻzdan kechirish oʻtkazish imkoniyati JPKning 140-moddasida nazarda tutilgan boʻlsa-da, bunday holatlarda

ma’lumotning manba serveri xorijiy davlat hududida joylashgan bo‘lishi mumkinligi muammosi hanuzgacha ochiq qolmoqda. Tergov amaliyotida milliy protsessual normalarning amal qilish doirasi davlatning suveren hududi bilan cheklangan bo‘lib, u hududiy sarhadlardan tashqarida tergov-protsessual va taktik harakatlarni o‘tkazishga huquqiy imkon bermaydi.

Raqamli dalilning sud amaliyotida maqbulligi hamda ishonchliligi uchta o‘zaro bog‘liq konseptual mezon doirasida baholanadi: haqiqiylik (dalilning aynan da’vo qilinayotgan manbaga mansubligi), yaxlitlik (obyektning shakllanishidan to sudga taqdim etilgunga qadar modifikatsiyalanmaganligi) hamda ishonchlilik (ma’lumotning ishonchli tizim va verifikatsiyalangan tartibda yaratilgani hamda saqlangani). Ushbu uchlik mezon O‘zbekiston Respublikasi JPKsining 88-moddasida nazarda tutilgan an’anaviy “aloqadorlik, ishonchlilik, maqbullik va yetarlilik” talablari bilan mazmunan muvofiq keladi, biroq raqamli obyektlarning o‘ziga xosligi sababli ularga nisbatan qo‘shimcha texnik-protsessual tekshiruvni taqozo etadi [12].

Sud amaliyotida bir xillikni ta’minlashda Oliy sud Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-son qarori ham muhim yo‘naltiruvchi va metodologik ahamiyat kasb etadi. Unda dalillarning maqbulligi mezonlariga oid jinoyat-protsessual qonun normalarini qo‘llash xususiyatlari tushuntirilgan bo‘lib, mazkur qarorning 2025-yil 23-iyundagi 14-sonli Plenum qarori bilan kiritilgan yangi tahririda raqamli dalillar bilan ishlashga oid qoidalar ham o‘z aksini topgan [13]. Demak, raqamli dalil ham boshqa dalillar kabi uni to‘plashda protsessual talablar buzilgan taqdirda maqbul deb topilmaydi. Shu bois hozirgi sud amaliyoti uchun dalilning yaxlitligini texnik jihatdan tasdiqlash mexanizmini qonun darajasida mustahkamlash alohida dolzarblik kasb etadi.

Aynan shu texnik tekshiruvni ta’minlashning muhim vositalaridan biri “saqlash zanjiri” (chain of custody) tushunchasi bilan ifodalanadigan hujjatlashtirish tartibidir. Bu tartib dalilning aniqlangan lahzasidan toki sudga taqdim etilgunga qadar bo‘lgan barcha harakatlar, ya’ni kim, qachon, qanday sharoitda uni qo‘lga oldi, qayerga va qanday tashildi, kim va qachon unga kirish huquqiga ega bo‘lganini muntazam hujjatlashtirilishini nazarda tutadi. Zanjirdagi har qanday tushib qolgan bo‘g‘in, masalan, olib qo‘yish va ekspertizaga yuborish o‘rtasidagi vaqt oralig‘ida dalilning kim tomonidan saqlanganligi haqidagi ma’lumotning yo‘qligi dalilning sud jarayonida e’tirozga uchrashiga va oxir-oqibat uni nomaqbul deb topilishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston amaldagi qonunchiligida “saqlash zanjiri” tushunchasi to‘liq mustahkamlanmagan, biroq uning mazmuniy elementlari JPKning 208-moddasida, ya’ni “ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni saqlash hamda boshqa joyga yuborish” jarayonida aks etgan. Unga ko‘ra dalillar yo‘qolishi, shikastlanishi yoki aralashib ketishining oldini olish choralari ko‘rilishi, ularning qayerda ekanligi ayblov xulosasiga ilova qilingan ma’lumotnomada ko‘rsatilishi lozim. Ammo, ushbu norma umumiy tavsifga ega bo‘lib, raqamli dalillarga xos xesh-summani qayd etish, metama’lumotlarni saqlash, kirish jurnalini yuritish kabi alohida xususiyatlarni belgilamaydi. Chunki saqlash zanjiri mustaqil huquqiy munosabatni emas, balki dalilning yaxlitligi va kelib chiqishini isbotlashga xizmat qiluvchi protsessual kafolatlar majmuasini ifodalaydi, uning asosiy elementlari esa JPKning 208-moddasi hamda tergov harakatlari bayonnomalariga oid normalarda allaqachon mavjud. Shu sababli muammo yangi “institut” yaratishda emas, balki raqamli dalillarni olishdan boshlab sudga taqdim etishgacha bo‘lgan har bir operatsiyani maxsus protsessual tartibda hujjatlashtirish mexanizmini ishlab chiqishdadir: buning uchun JPKning 208-moddasini raqamli dalillarga xos hujjatlashtirish talablari bilan to‘ldirish zarur.

Amaliy jihatdan raqamli dalil bo‘yicha saqlash zanjiri jurnali kamida quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak: dalilni qo‘lga kiritgan shaxs va uning maqomi, qo‘lga kiritish sanasi va vaqti, xesh-summa qiymati, saqlash joyi va sharoiti, dalilga har bir kirish yoki uni topshirish to‘g‘risidagi yozuvlar. Bunday jurnal dalilning yaxlitligi to‘g‘risidagi nizo yuzaga kelganda uni sinchiklab tekshirish imkonini beradi [14].

Xalqaro darajada raqamli dalillar bilan ishlash va ularni tartibga solish mexanizmlari ikkita asosiy konseptual yo‘nalishga ajratiladi: birinchidan, transchegaraviy kirish va hamkorlikni jadallashtirishga qaratilgan xalqaro-huquqiy mexanizmlar bo‘lsa, ikkinchidan, milliy qonunchilik hamda amaliyot darajasida birxillashtirilgan texnik standartlarni joriy etishdan iboratdir.

Birinchi yoʻnalishga misol sifatida Yevropa Kengashining Kiberjinoyatchilik toʻgʻrisidagi Konvensiyasiga (Budapesht konvensiyasi) keltirish mumkin. Ushbu konvensiya xalqaro huquqiy yordam tartibini soddalashtirish, xizmat koʻrsatuvchi provayderlar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri hamkorlik qilish imkoniyatini yaratish va transchegaraviy qidiruvlar uchun kafolatlar tizimini joriy etishni nazarda tutadi. Biroq Oʻzbekiston Respublikasi hozircha Konvensiya taraflari, uni imzolagan yoki unga qoʻshilishga taklif etilgan davlatlar roʻyxatiga kirmagan, shu sababli Konvensiya hozirgi vaqtda Oʻzbekiston uchun amaldagi bevosita hamkorlik mexanizmi emas, balki istiqboldagi model sifatida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, transchegaraviy raqamli izlar va raqamli dalillarni tezkor olish amaliyotida Yevropa Ittifoqining 2023-yil 12-iyuldagi 2023/1543-son Reglamenti alohida oʻrin tutadi. Hujjatga asosan, bir a'zo davlatning sud instituti boshqa a'zo davlatda faoliyat yurituvchi xizmat provayderiga "Yevropa taqdim etish buyrugʻi" yoki "Yevropa saqlash buyrugʻi"ni toʻgʻridan-toʻgʻri yoʻnaltirishi mumkin. Biroq mazkur Reglament faqat Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar oʻrtasida Yevropa taqdim etish buyrugʻi (European Production Order) va Yevropa saqlash buyrugʻi (European Preservation Order) mexanizmlarini tartibga soladi, shu sababli u Oʻzbekiston uchun bevosita qoʻllaniladigan mexanizm hisoblanmaydi va faqat qiyosiy model sifatida ahamiyatga ega. An'anaviy huquqiy yordam mexanizmlariga qaraganda ancha tezkor boʻlgan ushbu amaliy tartib 2026-yil 18-avgustdan e'tiboran qoʻllanilmoqda.

Ikkinchi yoʻnalish doirasida ISO/IEC 27037:2012 xalqaro standarti yuqori oʻrinni egallab, raqamli dalillarni aniqlash, toʻplash, qoʻlga kiritish hamda saqlashning yagona metodologik modelini ilgari suradi va turli yurisdiksiyalar oʻrtasidagi transchegaraviy dalil almashinuvi tartibini soddalashtiradi. AQSH tajribasining qiyosiy tahlili esa raqamli dalillarni sudda baholash va ularning maqbulligini e'tirof etish Daubert standarti, Federal dalillash qoidalari (Federal Rules of Evidence) hamda "eng yaxshi dalil qoidasi" (Best Evidence Rule) kabi mezonlar tizimiga tayanishini koʻrsatmoqda [15].

Oʻzbekiston tajribasi bilan qiyoslaganda shuni ta'kidlash lozimki, milliy qonunchilik hozircha faqat ichki protsessual tartiblarni mutaxassis ishtiroki, koʻchirma nusxa olish kabi jarayonlarni tartibga solgan, biroq transchegaraviy hamkorlik masalalari, xorijiy davlatda joylashgan serverga saqlangan ma'lumotlarni tezkor tarzda "muzlatish" yoki xizmat provayderidan toʻgʻridan-toʻgʻri talab qilish instituti hali shakllanish bosqichida qolmoqda. Shu jihatdan, Malayziya va Singapur kabi Osiyo davlatlarining raqamli dalillarga oid protsessual tajribasini qiyosiy oʻrganish ham ilmiy ahamiyat kasb etadi [16]. Bu borada Yevropa Kengashining Budapesht konvensiyasiga hamda Yevropa Ittifoqining 2023/1543-son Reglamentida qoʻllanilgan modellarni Oʻzbekiston qonunchiligiga bevosita koʻchirish emas, balki ularning ayrim elementlarini xalqaro shartnomalar va milliy protsessual tizim xususiyatlariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 594-moddasida xorijiy davlatlar yurisdiksiyasida toʻplangan dalillarning yuridik kuchini e'tirof etish tartibi belgilangan. Ammo ushbu normativ qoida asosan chet elda olingan dalillarning maqbulligi va protsessual statusini tartibga solib, xorijiy serverlarda joylashgan raqamli ma'lumotlarni tezkor ushlash, saqlab qolish yoki ularni vaqtincha "muzlatish" kabi maxsus mexanizmlarni oʻz ichiga olmaydi. Shu munosabat bilan, milliy qonunchilikdagi xalqaro huquqiy yordam institutini elektron dalillarga xos boʻlgan tezkor protsessual mexanizmlar bilan boyitish talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlil asosida quyidagi asosiy muammolarni ajratish mumkin:

birinchidan, JPK normalarida "mutaxassis" maqomining raqamli dalillarga nisbatan malaka mezonlari oʻz aksini topmaganligi;

ikkinchidan, raqamli dalillardan koʻchirma nusxa olish chogʻida uning yaxlitligini bit darajasida verifikatsiya qiluvchi muhim texnik koʻrsatkich boʻlgan kriptografik xesh-summani hisoblash, qayd etish va rasmiylashtirish mexanizmlari hamda uni autentifikatsiya, metama'lumotlar va saqlash zanjiri bilan bogʻlash tartibi qonun va ekspertiza standartlarida yetarlicha shakllantirilmaganligi;

uchinchidan, "saqlash zanjiri" (chain of custody) elementlari JPKning 208-moddasida umumiy tarzda mavjud boʻlsa-da, raqamli dalillarni olishdan sudga taqdim etishgacha boʻlgan har bir operatsiyani hujjatlashtirishning raqamli dalillarga xos maxsus protsessual tartibi belgilanmaganligi;

toʻrtinchidan, transchegaraviy elektron ma'lumotlarga zudlik bilan kirish va ularni fiksatsiya qilish boʻyicha samarali tezkor mexanizmlar yetishmovchiligi [17].

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, JPKning $204^2$-moddasiga qo‘shimcha kiritib, raqamli dalildan ko‘chirma nusxa olinganda uning original bilan bitma-bit aynanligini tasdiqlovchi kriptografik xesh-summani hisoblash va uni tegishli bayonnomada qayd etish majburiyatini nazarda tutish lozim.

Mazkur qoidada quyidagilarni aniq belgilashi zarur:

1) xesh-summa hisoblanadigan bosqich: xesh-summa elektron ma’lumot olib qo‘yilgan yoki ko‘zdan kechirilgan zahoti, ko‘chirma nusxa yaratilishi bilan bir vaqtda, shuningdek nusxa ekspertizaga yuborilishi yoki boshqa shaxsga topshirilishidan oldin hisoblanishi;

2) hisoblovchi subyekt: xesh-summa tergov harakatida ishtirok etayotgan mutaxassis tomonidan, tergovchi (surishtiruvchi) va tegishli hollarda xolislar ishtirokida hisoblanishi; JPKning $204^1$-moddasi asosida shaxs tomonidan taqdim etilgan ko‘chirma nusxalar uchun esa taqdim etuvchi shaxs va dalilni qabul qilayotgan mansabdor shaxs ishtirokida hisoblanishi;

3) protsessual hujjat: xesh-qiymat, algoritm nomi, hisoblash sanasi va vaqti, uni hisoblagan shaxs hamda qo‘llanilgan dasturiy vositaning nomi va versiyasi tegishli tergov harakati bayonnomasida (olib qo‘yish yoki ko‘zdan kechirish bayonnomasida) hamda saqlash zanjiri jurnalida qayd etilishi;

4) algoritmga qo‘yiladigan talablar: kriptografik jihatdan yetarlicha bardoshli, xalqaro miqyosda tan olingan xesh-algoritm masalan, SHA-256 qo‘llanilishi, kriptografik zaifligi aniqlangan algoritmlar (MD5, SHA-1) esa yakka tartibda yaxlitlikni tasdiqlash vositasi sifatida qo‘llanilmasligi; algoritm va dasturiy vositalarga qo‘yiladigan batafsil texnik talablar vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan normativ hujjatda belgilanishi;

5) qayta verifikatsiya tartibi: nusxa qayta ochilganda (ekspertiza, keyingi tergov harakati yoki sud majlisida tekshirish chog‘ida) xesh-qiymat qayta hisoblanib, bayonnomada qayd etilgan qiymat bilan solishtirilishi, natija yangi bayonnoma yoki jurnal yozuvi bilan rasmiylashtirilishi, qiymatlar mos kelmagan taqdirda bu holat ish materiallariga qo‘shilishi va dalilning ishonchliligi sud tomonidan alohida baholanishi;

6) xesh-summaning huquqiy ahamiyati: xesh-summa faqat ma’lumotning bit darajasidagi o‘zgarmaganligini tasdiqlovchi vosita sifatida qaralishi, dalilning manbasi, muallifligi, qonuniy olinganligi hamda mazmunan haqiqiyligi esa autentifikatsiya, metama’lumotlar, protsessual bayonnoma va saqlash zanjiri asosida baholanishi.

Ikkinchidan, JPKning 208-moddasini raqamli dalillarni olishdan boshlab sudga taqdim etishgacha bo‘lgan har bir operatsiyani (olib qo‘yish, nusxalash, tashish, saqlash, ekspertizaga yuborish, topshirish) maxsus protsessual tartibda hujjatlashtirish qoidalari bilan to‘ldirish taklif etiladi va unda dalil bilan aloqador bo‘lgan har bir shaxs, harakat va vaqt oralig‘i, shuningdek unga kirish fakti majburiy tartibda elektron jurnalda qayd etilishi belgilanishi kerak. Bu ISO/IEC 27037:2012 standartida keltirilgan yondashuviga ham mos keladi.

Uchinchidan, mutaxassis va ekspertlarning raqamli dalillar bilan ishlash bo‘yicha malaka talablarini belgilovchi maxsus me’yoriy hujjat ishlab chiqish lozim.

To‘rtinchidan, transchegaraviy elektron dalillarga tezkor kirish imkoniyatini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Kengashining Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi Konvensiyasiga qo‘shilish istiqbollarini hamda ikki tomonlama shartnomalar asosida xizmat provayderlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlik mexanizmini joriy etish masalasini ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, O‘zbekiston Respublikasida raqamli dalillarni jinoyat protsessida institutsionallashtirish bo‘yicha 2024-yilgi qonunchilik islohotlari muhim qadam bo‘lib, u JPKga elektron ma’lumot va raqamli dalil tushunchalarini, ularni to‘plash va taqdim etish tartibini kiritdi. Biroq mazkur institut hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, xususan, raqamli dalillar yaxlitligini texnik tasdiqlash, saqlash zanjirini yuritish va transchegaraviy hamkorlik masalalari hozircha ochiqligicha qolmoqda.

Tadqiqot natijalaridan Jinoyat-protsessual kodeksini takomillashtirishda, mutaxassislarning raqamli dalillar bilan ishlash bo‘yicha malakaviy talablarini ishlab chiqishda hamda tergov va sud amaliyoti uchun tegishli uslubiy tavsiyalarni tayyorlashda amaliy foydalanish mumkin. Tadqiqot doirasida ilgari surilgan takliflar xesh-summa orqali verifikatsiya qilish mexanizmini autentifikatsiya,

metama'lumotlar va saqlash zanjiri bilan kompleks tarzda joriy etish, raqamli dalillar bilan bog'liq har bir operatsiyani hujjatlashtirishning maxsus protsessual tartibini shakllantirish, xalqaro hamkorlikning istiqbolli modellarini milliy tizimga moslashtirish hamda hozirgi amaliyotda dalillarning maqbulligi va ishonchliligini oshirishga, o'z navbatida, adolatli sudlovni ta'minlashga xizmat qiladi.

## IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni, 21.11.2024 y., O'RQ-1003-son. URL: https://lex.uz/docs/7228758

2. Council of Europe. Second Additional Protocol to the Convention on Cybercrime on enhanced co-operation and disclosure of electronic evidence, CETS No. 224, adopted 17.11.2021 [Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Konvensiyaga kuchaytirilgan hamkorlik va elektron dalillarni oshkor qilish haqidagi Ikkinchi qo'shimcha protokol]. URL: https://www.coe.int/en/web/cybercrime/second-additional-protocol

3. Regulation (EU) 2023/1543 of the European Parliament and of the Council of 12 July 2023 on European Production Orders and European Preservation Orders for electronic evidence in criminal proceedings [Jinoyat ishlarida elektron dalillar uchun Yevropa taqdim etish va saqlash buyruqlari to'g'risidagi Reglament]. URL: https://eur-lex.europa.eu/EN/legal-content/summary/electronic-evidence-in-criminal-proceedings.html

4. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 8 iyul kuni mahallada jinoyatchilikni jilovlash va qonun ustuvorligini ta'minlash chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi. URL: https://president.uz/uz/lists/view/83085.

5. O'zbekistonliklar 11 oyda kiberjinoyatlardan 1 trln 890 mlrd so'm zarar ko'rdi URL:https://kun.uz/news/2025/12/24/ozbekistonliklaroydakiberjinoyatlardan-1-trln-890-mlrd-som-zarar-kordi

6. Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizasi imkoniyatlari va undan amalda foydalanish masalalari (amaliy qo'llanma) https://sudex.uz/wp-content/uploads/2026/03/06-Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizasi-imkoniyatlari.pdf

7. ISO/IEC 27037:2012. Information technology Security techniques Guidelines for identification, collection, acquisition and preservation of digital evidence [Axborot texnologiyasi Xavfsizlik usullari Raqamli dalillarni aniqlash, to'plash, qo'lga kiritish va saqlash bo'yicha ko'rsatmalar]. URL: https://www.iso.org/standard/44381.html

8. Best Practices for Maintaining Chain of Custody for Digital Evidence [Raqamli dalillar uchun saqlash zanjirini yuritishning ilg'or amaliyotlari] // Vidizmo, 2026. URL: https://vidizmo.ai/blog/chain-of-custody-for-digital-evidence

9. Raqamli dalillarning boshqa dalillardan farqi // Uzbek Scholar Journal, Volume 50, 2026. URL https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/download/1182/1121/1243

10. Dalillar tushunchasi va ularning nazariy-huquqiy mohiyati // Zenodo, 2026. URL: https://zenodo.org/records/20561965

11. Council of Europe. Convention on Cybercrime (Budapest Convention, ETS No. 185): Parties, signatories and States invited to accede [Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Konvensiya (Budapesht konvensiyasi, ETS No. 185): taraflar, imzolagan va qo'shilishga taklif etilgan davlatlar]. URL: https://www.coe.int/en/web/cybercrime/the-budapest-convention

12. Narasimhan P., Kala N. Ensuring the Integrity of Digital Evidence: The Role of the Chain of Custody in Digital Forensics [Raqamli dalil yaxlitligini ta'minlash: raqamli kriminalistikada saqlash zanjirining o'rni] // International Journal of Scientific Research in Computer Science, Engineering and Information Technology. 2024. Vol. 10, No. 6. P. 2438–2450. URL: https://ijsrcseit.com/index.php/home/article/view/CSEIT2410612443

13. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-son qarori "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" (2025-yil 23-iyundagi 14-son qaror tahririda). URL: https://lex.uz/docs/-3895986

14. Chain of Custody: Safeguarding Digital Evidence Integrity [Saqlash zanjiri: raqamli dalil yaxlitligini himoya qilish] // Computer Forensics Lab, 2026. URL: https://computerforensicslab.co.uk/chain-of-custody-digital-evidence/

15. Raqamli dalillarning jinoyat protsessida maqbulligi va ishonchliligi // Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali, 3(5), 186–194, 2026. URL: https://zenodo.org/records/20286675

16. Jinoyat protsessida dalillar va isbotlash institutining nazariy va amaliy jihatlari // Zenodo, 2025. URL: https://zenodo.org/records/17308563

17. Nomaqbul dalillarni aniqlash va baholashning nazariy-huquqiy asoslari // In Academy, 2025. URL: https://in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/download/67057/42207/75820

# YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON

# ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5

# LAWYER HERALD

ISSUE 5

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/5

2026-YIL